

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**QO'LYOZMA HUQUQIDA**

**AHMEDOV BOTIRJON RAVShANOVICH**

**«O'ZBEK TILIDA GENDER TADQIQI»**

**MUTAXASSISLIK: 5A220102-LINGVISTIKA (O'ZBEK TILI)**

**MAGISTR DARAJASINI OLISH UCHUN TAYYORLANGAN**  
**DISSERTATSIYA**

**ILMIY RAHBAR:**

filologiya fanlari doktori,  
professor **A.NURMONOV**

**ANDIJON-2012**

## MUNDARIJA

### **I. KIRISH.....3-6**

Ishning umumiy tavsifi.....3-6

### **II. ASOSIY QISM:**

#### **BIRINCHI BOB. GENDER MUAMMOSINING O'RGANILISHI.....**

1.1. Genderning sotsiologik tavsifi.....

1.2. Gender psixologiyasi o'rganilishining qisqacha tarixi.....

1.3. Gender lingvistikasi muammolari.....

1.4. Genderning germenevtik jihatdan lisoniy voqelanishi.....

#### **IKKINCHI BOB. O'ZBEK TILIDA GENDERNING IFODALANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....**

2.1. Muloqot jarayonida genderning yuzaga chiqishi.....

2.2. Personajlar nutqida genderga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi.....

2.3. Noverbal aloqalarda genderning yuzaga chiqishi.....

2.4. Gender namoyon bo'lishining amaliy asoslari.....

### **IV. XULOSA.....**

### **V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....**

## KIRISH

### ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi globalashuv va integratsiya jarayonida ilm fanni yanada yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat, san'at, fanni rivojlantirish, uni yangi davr, yangicha dunyoqarash nuqtai nazaridan taraqqiy toptirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish davlat ishi ahamiyatiga molik"<sup>2</sup> ekanligini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'zbek tili sohasida ham milliy ruh imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida ayniqsa, tilning boshqa fanlar bilan aloqasiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Til kishilar o'rtasida eng muhim aloqa vositasi sifatida ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Demak, u boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadadir. Shu bois ham u xalqning dunyoqarashi, o'tmishi, madaniyati, ruhiyati kabi masalalarni o'rganuvchi falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya, etika kabi fanlar bilan bog'liq. Bu bog'liqlik natijasida tilshunoslikda bir qator oraliq yo'nalishlar – mentalingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi yangi fan sohalari vujudga keldi.

O'zbek tilshunosligida ham bunday yondashuvlarning kurtaklari mavjud bo'lsa-da, gender lingvistikasi yo'nalishi bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Gender lingvistikasi nafaqat sotsiolingvistika, psixolingvistika, balki tilshunoslikning barcha yo'nalishlari bilan bir qatorda inson, kishilik jamiyatini o'rganadigan boshqa fanlar uchun ham qiziqish kasb etadi. Bizning fikrimizcha, tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan, bir necha fanlarning chorrahasida hosil bo'luvchi gender lingvistikasi o'zbek tilshunosligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi – gender va gender lingvistikasi muammolarini o'zbek tili misolida yoritishdan iborat. Ushbu asosiy maqsaddan kelib chiqib, ishda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: "Ўзбекистон", 2000, 238-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: "Ўзбекистон", 1996, 62-бет.

- Gender muammosining o'rganilish tarixi va bu muammoning sotsiologik tavsifini yoritish;
- Gender psixologiyasi o'rganilishining qisqacha tarixini yoritish;
- Gender lingvistikasi sohasidagi muammolarni tahlil etish;
- Genderning germenevtik jihatdan lisoniy voqelanishini yoritib berish;
- Muloqot jarayonida genderning yuzaga chiqishini asoslab berish;
- Personajlar nutqida genderga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini yoritib berish;
- Noverbal aloqalarda genderning yuzaga chiqishini yoritib berish;
- Gender namoyon bo'lishining amaliy asoslarini yoritib berish. Bunda matn persepsiyasi usulidan foydalanish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va usullari.** Tadqiqotning metodologik asosini Prezidentimiz I.A.Karimovning tarixiy meros va qadriyatlar haqidagi g'oyalari, germenevtika falsafasi tashkil etadi.

Sotsiolingvistika va psixolingvistikada qo'llanilayotgan kuzatish, matn persepsiyasi kabi usullardan foydalanildi.

**Dissertatsiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalaridan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tuzish, gender lingvistikasiga oid maxsus seminar kurslarini o'tish jarayonida, kriminalistika sohasida qo'lyozma matnlarni tahlil qilish jarayonida, foydalanish mumkin.

**Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Andijon davlat universiteti «Tilshunoslik» kafedrasining istiqbol ilmiy rejasiga kiritilgan va kafedrada olib borilayotgan tadqiqot ishlari bilan uzviy bog'liq.

**Dissertatsiya natijalarining sinovdan o'tishi.** Dissertatsiyadagi ayrim natija va xulosalari ilmiy-amaliy konferensiyalarda e'lon qilingan 5 ta tezisda o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, dissertatsiyaning asosini tashkil etgan 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 65 bet.

## I BOB

### GENDER MUAMMOSINING O'RGANILISHI

#### 1.1. Genderning sotsiologik tavsifi

Rasmiy kommunistik mafkura barham topgach, uning o'rnida vujudga kelgan bo'shliqni an'anaviy qadriyatlar, urf-odatlar egalladi. Qadimgi madaniyat va xotin-qizlarga ularni an'anaviy ravishda ona va xotin deb qarash amaliyoti barcha darajalarda ustunlik qila boshladi. Bunday amaliyot xotin-qizlarning, ayniqsa, qishloq ayollarining ahvoli, tanlash imkoniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xotin-qizlarni kamsituvchi qarashlar va urf-odatlar, aqidalar ba'zan uchrab turadi.

Bu boradagi kamchiliklarga barham berish, xotin-qizlarni tom ma'noda yangi, demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining teng huquqli bunyodkoriga aylantirish yo'lida insoniyat ma'naviyati xazinasiga, aniqrog'i, G'arbdagi xotin-qizlarning harakati natijasida gender nazariyasi vujudga keldi.

Gender nazariyasining vujudga kelishida bugungi kunda ijtimoiy madaniy rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi rol o'ynaydi. XX asrning 70-yillarida Z.Freyd va P.Parsonning g'oyalari bilan sug'orilgan an'anaviy ijtimoiy fandan qoniqmagan feminizm nazariyotchilari o'zlarining G'arb bilimiga nisbatan nazariy e'tirozlarini hamda madaniyat tahliliga oid yangi nazariy-uslubiy yondashuvlarni ifodalay boshladi.

Feministik g'oyalar madaniyatning turli sohalariga kirib borishi nihoyatda jadal sur'atlar bilan davom etdi: 70-yillarning boshida hammani hayratga solgan munozaralar va xis-hayajonlarning to'fonini qo'zg'otgan an'anaviy madaniyatning jinsiylik konsepsiyasi (jinsiylik deganda jinsiga ko'ra kamsitish anglashiladi) endilikda madaniy G'arb kishisi ongiga ajralmas bir tushuncha bo'lib kirdi. Amalda jinsiylikka qarshi kurash BMTning "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya"sida (1979) ham e'lon qilingan.<sup>1</sup>

Ushbu muammoning tuzilishi, mazmuni va ahamiyati to'g'risida gapirishdan oldin, gender tushunchasining o'ziga to'xtash zarur.

---

<sup>1</sup> Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётга кириш. –Т. "Ўзбекистон", 2007, 28-бет.

Gender – inglizcha “gender” – “zot” soʻzidan olingan boʻlib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi boʻlgan ijtimoiy qurilma sifatida belgilaydi.<sup>1</sup> Jins erkaklar va ayollar oʻrtasidagi universal biologik farq boʻlib, anatomik va fiziologik mohiyatni, yaʼni individning biologik jinsga – erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos boʻladigan biologik belgilar birligidir. Erkaklar va ayollar oʻrtasidagi jiddiy boʻlmagan farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqlidir. Biroq erkaklar va ayollar oʻrtasidagi biologik farqlardan tashqari, oʻz tabiatiga koʻra biologik sabablarga asoslanuvchi koʻplab farqlar bor, yaʼni ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining boʻlinishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflarida koʻplab farqlar mavjud.

Taʼkidlanganidek, erkaklar va ayollar oʻrtasidagi biologik tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan.

Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy maʼnoda ikki tushuncha – biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Kundalik hayotimizda jins bilan bogʻlanmagan koʻplab tushunchalar “erkaklarga xos” yoki “ayollarga xos” deb hisoblanadi. “Erkaklarga xos” yoki “ayollarga” xos tushunchalarni aniqroq farqlash uchun “feminlik” (ayollik) va “maskulinlik” (erkaklik) tushunchalari qabul qilingan. Yangi tushunchalarning kiritilishi erkaklarga xoslik va ayollarga xoslikning biologik ziddiyatini bartaraf etish va eʼtiborni turli madaniyatlar shakllanishining ichki mexanizmlarini gender nuqtai nazaridan ochishga qaratish imkonini berdi.

Antropologlar, psixologlar va sotsiologlar genderning biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilanishi, madaniy va tarixiy jihatdan esa nisbiy ekanligini taʼkidlaydilar.<sup>2</sup>

Sofya Babayan bu haqda: “Gender ijtimoiy tushuncha. Ayol yoki erkakning benuqson timsoli berilgan, xronologik va geografik muhit rang-barangligi, milliy anʼanalari, etnopsixologiyasi, dini, tarixi va milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi” – deb yozadi. Uning mazmuni, sharhi va ifodasi oʻz ichida ham, madaniyatlararo ham oʻzgardi hamda tarixiy oʻzgarishlar obʼekti boʻlib xizmat qiladi. Ijtimoiy omillar – yosh, toifa, irq va kelib chiqishi – alohida gender mazmuni, ifodasi va tajribasini tashkil etadi hamda uni biron bir

---

<sup>1</sup> Э.Гидденс Социология. – Т. “Шарк”. 2002., 185-бет.

<sup>2</sup> Бу ерда Маргарет Миднинг куйидаги асари назарда тутилади: Mead M. Sex and Temperament three Primitive Societies. 1935. N.Y.

soddalashtirilgan usul bilan jins yoki jinsiylikka tenglashtirib bo'lmashligini ajratib ko'rsatadi.

Zamonaviy jamiyatshunoslik izchillik bilan va samarali tarzda ushbu tushunchani ijtimoiylik hamda uning shakllarini tahlil qilish borasidagi muhim asoslardan biri sifatida ishlab chiqmoqda. "Gender" tushunchasining mazmuni avvalo jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Ijtimoiy jins ijtimoiy amaliyot yordamida tashkil qilinadi. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar me'yoriy tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda "erkaklarga oid" va "ayollarga oid" bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo'ladi. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga jins, faqat gender demakdir, ya'ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyat va tilga ega.

Gender ayollar va erkaklarga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ijtimoiy jarayonlarda mavjud, tashkil topadi va qayta tiklanadi. Genderning ijtimoiy tashkil topishi nazariyasida uchta asosiy tushuncha farqlanadi: jins, jinsiy mansublik va gender.<sup>1</sup>

1970 yillar boshigacha jins xususida bu anatomik, fiziologik o'zgarish kattalik (konstanta), individga berilgan maqom, degan aniq tasavvur mavjud bo'lgan. Gender esa feminist tadqiqotchilar tomonidan "psixologik, madaniy va ijtimoiy vositalar bilan erishiladigan maqom" sifatida ko'rib chiqiladi". Biroq, shaxsning gender identifikatsiyasi kichikligidanoq, 5 yoshlarga kelib (K.Miller esa 18 oylik yosh haqida darak beradi) shakllanishi, keyinchalik esa jamlanadigan tajribada mustahkamlanib borishi gender erishishi mumkin bo'lgan maqom ekanligi to'g'risidagi qarashni shubha ostiga oladi.<sup>2</sup>

Xuddi shu kabi qayta anglash jarayonlari ijtimoiy va gumanitar fanlarda ham sodir bo'lmoqda. YAqin paytlargacha jamiyatga yot deb qarab kelingan hodisalar zamonaviy jamiyatda turli-tuman ijtimoiy harakatlar ifodasi sifatida qabul qilinadi.

---

<sup>1</sup> Каранг: Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория. Введение в гендерные исследования. Часть 1. Учебное пособие. Под ред. Жеребкиной. Харьков. ХГЦИ. «АЛЕТЕЙЯ», СПб., 2001. Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётга кириш. –Т. "Ўзбекистон". 2007.

<sup>2</sup> Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётга кириш. –Т. "Ўзбекистон". 2007.

Jins va gender tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi urinish 1968 yili Kaliforniya universiteti professori Robert Stoller tomonidan amalga oshirildi. Fandagi yangi kashfiyotlar ularni nazariy jihatdan anglash bilan birga tadqiqotchilarni shunday xulosaga olib keladiki, jins bu – biologik xususiyatlarning birligi bo'lib, individni muayyan biologik jinsga tegishli deb bilish uchun dastlabki asosdir. Biroq faqat rol emas, balki jinsga daxldorlikning o'zi o'zaro aloqalar jarayonida individlarga bog'lab qo'yiladi".

Taniqli sotsiolog G.G.Sillaste aytadi: "feminologiya ayollarni sotsial-demografik guruh sifatida o'rganish bilan chegaralanib qolmaydi. Bunday yondashuvda, belgilangan avlodlarda jinslarning o'zaro munosabatlari muammolari, tug'ilish va o'limning o'sish sur'atlari, jinsidan qat'iy nazar qancha umr ko'rish masalalari birinchi o'ringa chiqadi. Juda bo'lmaganda bu yerga ayollarning ishchi kuchi sifatidagi, jamiyat ishlab chiqarishidagi ishtiroki tavsiflari qo'shiladi". U ayol kishini chinakam mavjud va aniqlangan, butun va turg'un ijtimoiy birlikka tegishli deb aniqladi. To'g'ri, bu birlik jamiyat qarashlari, boshqa ijtimoiy guruhlar va birliklar, hamda ularning bir-biri bilan aloqalari, stratifikatsiya to'riga aralashib ketgan. Ammo Sillaste ayol shaxsini alohida ijtimoiy kelib chiqishiga asoslanib, aniqlash mumkin deb hisoblaydi.

Larisa Vasileva o'zining "Dunyo bilan suhbatlashib" nomli ishida adiba va shoiralarni minbarni egallab olib erkaklarni tushunishni hohlamagan holda, ayollar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilmoqdalar deb ayblaydi. Afsuski, bu kamchilik genderologiya dunyoga kelayotgan vaqtda ham mavjud edi. Shuning uchun ham genderologiya va gender tadqiqotlari haqida gapirganda asosan ularning ayol aspektini ochib berishga e'tibor qaratilyapti.

O.A.Voronina XX asrning 80 yillarini ayollar tadqiqotining rivojlanishining yangi fazasi deb hisoblaydi, patriarxat (otalik) va ayollar tajribasi spesifikasini tahlil qilishdan gender sistemasi tahliliga o'tishni u shunday yozadi: - "Ayollar omili va erkaklar ustunligini ta'kidlashni tahlil qilishda, gender mavjud ekan, barcha ijtimoiy holatlarda erkak va ayollar uchun birdek tegishli bo'lgan ta'kidlanayotgan va aytilayotgan tahlilga o'tishda sekin asta aksentlarning aralashuvi kuzatilmoqda".<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Қаранг: Воронина О.А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований // Теория и методология гендерных исследований. Курс лекций / Под общ. ред. О.А.Вороной. – М.: МЦГИ – МВШСЭН – МФФ, 2001, с.с.13-106.

Ruhshunos R.Unger sex so'zini faqat insonning biologik aspektlari munosabatlariga, gender atamasini esa, qirralari, normalari, o'ziga xosligi, rollariga tegishli, yakka va yoqimli hisoblanuvchilarga, jamiyatda kishini erkak yoki ayol deb aniqlovchi iqtisodiy, ruhiy va madaniy aspektlarini muhokama qilishda foydalanishni taklif qiladi.

Gender tadqiqotlari – ayollarning xulq-atvori va ayollik xususiyatlarini, ularning ijtimoiy hayotdagi roli va ruhiy omillarini hisobga olmaganda, ayollar ijtimoiy tadqiqotlariga yaqin turadi. G.Sillaste ayollarni ishchi kuchi yoki ona va tarbiyachi sifatida o'rganishdan, ularning ijtimoiy roli va ruhiyatini hamma ko'p tomonlarini ijtimoiy tadqiqot qilishga o'tish kerak deb hisoblaydi.

Bunday yondashuvda ayollarning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy-madaniy faktorlarini taqqoslash, ayollar psixologiyasi va ayollarga xos jamiyat fikrlarining o'sib borishini yanada chuqurroq o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, bunda iqtisodiy va siyosiy aspektlari, ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning oiladagi rolini inkor etib bo'lmaydi.

Bizning qarashimizcha, erkaklarning ustunligi va ayollarning cheklanganligi, ijtimoiy shart-sharoitlarini o'rganish, hozircha gender nazariy tushunchalarini tuzilishida asosiy bo'lib qolmoqda. Kelajakda genderni yondashuv faqat ushbu aspektlarnigina emas, andrologik muammolarni ham hal etish va qo'yish, erkaklar qiyofasini, ijtimoiy shart-sharoitlar tushunchasini, o'tmishda va hozirda erkaklarning ijtimoiy roli va bu qiyofaning tuzilishi, erkaklar psixologiyasi hamda jamiyat fikrini taqqoslash kabi umuminsoniy muammolarni qo'yishi va hal etishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda, feminologiyadagi ayollar muammolarini hal etishga tegishli barcha aytilgan narsalar andrologiya fanini tashkil etishi kerak. Genderologiya fanini, feminologiya va andrologiya fanlarini qo'shish asosida aniqlash mumkin. Ammo genderologiya ikki ilmiy tartib va yondashuvning oddiy yig'indisi, hosilasi emas. Oxir oqibatda genderologiyaning maqsadi, feminologiya kabi otalik jamiyatini onalik jamiyati bilan almashtirish emas, balki, jinslar antogonizmini bartaraf etish va ijtimoiy rivojlanishining yuksalishida ikkala tomon – erkak va ayolni jarangdorligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun faqat ayollar emas, balki, erkaklar ham yanada chuqurroq tasavvurga ega bo'lishlari kerak.

O.Voronina uchta gender nazariyasini ajratib ko'rsatadi<sup>1</sup>. Bu ko'rsatib o'tilgan genderning uchta ishonchli nazariyasi bir-birini inkor etmaydi, aksincha, muammoning turli qirralarini ochib beradi.

Birinchi nazariya – genderning ijtimoiy tizim nazariyasi yoki gender tushunchasi ijtimoiy tizim sifatida. Bunda gender shunday aniqlanadi: “Jamiyatning asosiy institutlari tomonidan tuzilgan, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tashkillashtirilgan modeli” sifatida. Voronina bunday yondashuvning ikki jihatini ajratib ko'rsatadi:

1. Gender ijtimoiylashtirish, mehnat taqsimoti, gender rollar tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari o'rtasida tuziladi.

2. Gender individlarning o'zi bilan ularning bir-birini tushunish darajasi (gender identifikatsiyasi), ushbu jamiyatda qabul qilingan norma va ular asosidagi tuzilishlar (kiyimdagi, tashqi ko'rinishdagi, o'zini tushunishdagi va boshqalar) bilan quriladi. Gender yasash – erkaklar va ayollar, o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasida tabiiy bo'lmagan shunday farqlarni yaratish demakdir.

Ikkinchi nazariya – gender tushunchasi tarmoq, tuzilma yoki protsess sifatida. Gender stratifikatsion kategoriya sifatida boshqa stratifikatsion kategoriyalar bilan mos kelishi, sinf, irq, yosh kabi stratifikatsion kategoriyalar qatorida genderni ko'rib chiqish.

Uchinchi nazariya – madaniy metafora sifatidagi gender tushunchasi. Erkaklik va ayollik ontologik va gnoseologik darajasida madaniy-ramziy qatorlari elementlari sifatida mavjud bo'ladi: “erkaklarga oidlik” – irqiy tadbirlar, diniy, ilohiylik, madaniyatlilik; “ayollarga oidlik” – sezgirlik, jismoniy gunohkorlik, tabiiy. Bu yerda qiyosiy baholash noaniq. “Erkaklarga oidlik” yoki u bilan ahamiyatli va kuchli hisoblanadi, “ayollarga oidlik” deb aniqlanadiganlari – ikkilamchi. Bu gender tus olgan jinsdan tashqari juft kategoriyalarda: tabiat va madaniyat, sezgirlik va tadbirkorlik, ilohiy va yerlik va h.k. ham tarqalmoqda. Jins metaforasi shunday tuziladi va “ayollarga oidlik” jism singari tabiatga tenglashtiriladi. Erkaklar faoliyatini – ruhini tan olish orqali ishg'ol qilinadi.

## **1.2. Gender psixologiyasi o'rganilishining qisqacha tarixi**

---

<sup>1</sup> Қаранг: Воронина О.А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований // Теория и методология гендерных исследований. Курс лекций / Под общ. ред. О.А.Ворониной. – М.: МЦГИ – МВШСЭН – МФФ, 2001, с.с.13-106.

“Gender” atamasi nisbatan yangi tushuncha bo’lsada (1975), fanga unga bog’liq fikr va qarashlar anchadan buyon ma’lum. Gender psixologiyasi tarixida 5 bosqichni ajratish mumkin:

1. Falsafa zaminida genderga xos fikrlarning shakllanishi (qadimgi (antik) davrdan XIX asr oxirigacha);
2. Gender psixologiyasi predmeti va bo’limlarining ajratilishi (XIX asr oxiri XX asr boshlari);
3. “Freyd davri” ya’ni, Z.Freyd va psixoanaliz bilan bog’liq davr (XX asr boshlari – 1930 yillar);
4. Keng eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo bo’lishi;
5. Gender psixologiyasining barq urib rivojlanishi davri (1990 yillardan hozirga qadar).<sup>1</sup>

Gender tadqiqotlarining qadimgi davrlari haqida gapirganda Aflotun va Aristotel tilga olinadi.

Afinalik Aflotun (mil.avv. 427-347 yy.) o’zining “Bazm” (“Pir”), “Davlat” (“Gosudarstvo”), “Qonunlar” (“Zakono”) asarlarida oila-nikoh masalasi, jinslar tengligi masalalariga e’tibor qaratadi.

Aflotun androginlar (Adroginlar – erkak va ayollik xususiyatlariga ega mavjudotlar) (yunoncha andros - erkak va gyne yoki gynaikos – ayol) haqidagi afsonaga murojaat etadi: Afsonada aytilishicha, Zevs insonlarning itoatsizligi uchun g’azablanadi va ularni ikki jinsga bo’lib yuboradi. Shunday qilib, erkak va ayol – bir butun insonning ikki qismidir va ular faqat birlashsagina (bir-birini sevganda) yaxlitlikka, mukammallikka erishadi. Aflotunning oila yuritish normalari haqidagi fikrlari diqqatga sazovor – masalan, erkaklar faqat 30 yoshdan 55 yoshgacha farzandli bo’lishlari mumkin. Aholi soni ko’payib ketgan hollarda uning bir qismini koloniyalarga ko’chirish lozim.

Aflotunning ayolga bo’lgan munosabati qarama-qarshidir. Salbiy tomondan u quyidagilarda namoyon bo’ladi: ayolni tuban mavjudot hisoblaydi, erkakni ayolga muhabbati ham erkakning erkakka bo’lgan muhabbati – do’stlik oldida pastdir, majburiy holatdir. Aflotun erkakning ayolga muhabbatini “Razil Afrodita”, erkaklar o’rtasidagi

---

<sup>1</sup> Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006, С.11.

do'stlikni "Samoviy Afrodita" deb ataydi. Uning fikricha erkak qo'rqqoq badbaxt umr kechirsa, o'limidan so'ng uning ruhi ayolga o'tadi.

Aflotunning ayollarga ijobiy munosabati uning ideal davlat haqidagi ta'limotida aks etadi. Bu davlatda ayollar barcha sohada erkaklar bilan tengdirlar, bundan tashqari uy-ro'zg'or ishlaridan holi, davlat ishlarida faoldir, farzand tarbiyasi uchun esa erkak va ayollar birday mas'uldir.

Aristotel (mil.avv. 384-322 yy.) o'zining "Siyosat", "Hayvonlarning paydo bo'lishi haqida" va booshqa asarlarida erkak va ayollar munosabatlari, jamiyatda ularning mavqei, ular o'rtasidagi mehnat taqsimoti, aholi sonini tartibga solish kabi masalalarda o'z fikrlarini bayon etgan.

Uning fikricha, jamiyatda to'laqonli munosabatlar qaror topishi uchun aholi soni kamroq bo'lishi shart. Shuning uchun uni tartibga solish darkor: a) erkaklarga 37 yoshgacha, ayollarga 18 yoshgacha farzandli bo'lishni ta'qiqlash (bu o'rinda ayollar uchun biologik, erkaklar uchun esa ijtimoiy) balog'atga yetish nazarda tutilgan. Bu ham jinslarga turlicha munosabat hosilasidir. b) kasal bolalarni o'ldirish (buni qonun bilan mustahkamlash kerak). v) har bir oila uchun farzand sonini chegaralab qo'yish.

Aristotelning fikricha, er-xotin munosabatlari xo'jayin va cho'ri munosabatlari bo'lishi kerak. Ayol va erkak teng mavjudotlar emas. Ayol farzandiga tanni beradi, erkak esa – mohiyatan ustun bo'lgan jonni beradi. Erkak – hokimlik qiladi, ayol – bo'ysunadi. Qayd etish kerakki, XXI asrda ham ko'pchilik tomonidan Aristotelning fikrlariga o'xshash fikrlar bayon etiladi (Ayniqsa Sharqda – F.U).

Uyg'onish davridan bizni utopiyalar qiziqtiradi. Tomas Mor o'zining "Oltin kitob"i ("Zolotaya kniga") da ideal davlatni tasvirlagan. Bu davlatda erkak va ayollar faoliyat chegaralari belgilanmagan: jamoat ishlari, diniy faoliyat (Ruhoniy xizmatchi sifatida), xarbiy xizmat (Faqat o'z turmush o'rtoqlari bilan) va h.k. Ayollar yuqori mansablarni egallashlari mumkin bo'lgan.

Tomazzo Kampanella "Quyosh shahri" ("Gorod solnsa") asarida ideal davlatni tasvirlaydi. Unda ikki jins vakillari tengdirlar (xarbiy ta'limda ham), ularning kiyimlari ham farqlanmaydi. Farq ularning yumushlaridadir: erkaklar ancha og'ir ishlarni bajarishgan, ayollar esa nasl qoldirishgan. Ammo ular oila qurishmagan, farzand ko'rish uchun juft tanlashda esa astrologiya yordamga keladi. Erkak va ayollar o'zlariga juftni o'zlari

tanlashmagan, bu ishni ular uchun boshliqlar triumvirati astrologiya yordami bilan bajarganlar.

Jan Jak Russoning (1712-1778 yy.) fikriga ko'ra erkak va ayol o'rtasidagi o'xshashlik bu avvalo, ularning bir biologik tur vakillari ekanidir: ular ko'p jihatdan tengdirlar – organlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar. Biroq, jamiyat a'zolari sifatida ular teng emas. Bunga sabab, ularning tug'ma xususiyatlaridir. Erkaklar uchun bu xususiyatlar – mustaqillik, rostgo'ylik, dadillik va h.k; ayollar uchun esa uyatchanlik, ayyorlik, o'zgalar fikri bilan hisoblashish va h.k.

Russo fikricha, ayollar ancha teran fikr va aqlga egadirlar. Shu sababli, ular o'qib, ta'lim olishlari mumkin. Erkaklar va ayollar o'zlari turmush o'rtog'i tanlagan holda, sevib turmush qurishlari mumkin.

Immanuil Kant (1724-1804 yy.) uchun erkak va ayol – boshqaruvchi va boshqarilmishdir. YA'ni erkaklarning jamiyat siyosiy hayotidagi faoliyati aktiv, ayollarniki – passiv. Kant tomonidan bayon etilgan, gender stereotiplari qatorida turuvchi ushbu fikr, ya'ni ayollarning siyosiy yoki boshqa muhim qarorlar qabul qilishga qodir emasligi bugungi kunda ham ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi.

Ko'rinib turganidek, o'tmish arboblari jinslar o'rtasidagi farqlarni qayd etishgan va bu ularning fikricha tabiiy holdir. Bunday gender stereotiplari hech qanday isbotni ham talab etmaydi. Zamonaviy fan esa ularning (o'zgaracha) ma'lum isbot va asoslarini talab etadi.

Ingliz yozuvchisi Mari Uollstounkraft (1759-1797 yy.) ning fikricha, yuqorida "tabiiy" deya ta'kidlangan hislatlarning asosi tarbiyadadir. YA'ni, qizlar bolaligidan o'zlariga oro berib, qo'g'irchoq o'ynashsa, o'g'il bolalar boshqacharoq – ko'proq quvvat talab etadigan, kuch talab etadigan, shovqinli o'yinlar o'ynashadi.

Fridrix Shlegelning fikrlari zamondoshlari fikrlaridan birmuncha farq qiladi. U "tabiiy" deb atalgan jinslar o'rtasidagi farqlarni qo'ya turib, mukammal – ya'ni o'zida erkaklar va ayollar xizmatlarini birlashtirgan shaxs haqida fikr yuritadi. U erkaklarga o'zlariga yetishmaydigan ayollarga xos hislatlarni (masalan, emotsionallik), ayollarga esa erkaklarga xos hislatlarni (masalan, ) o'rganishni maslahat beradi.

Artur Shopengauer (1788-1860 yy.) erkaklar va ayollar psixik jarayonlariga e'tibor beradi. Erkaklar uchun – mavhumlik, ayollar uchun – konkretlik (aniqlik) xosdir. Bundan

tashqari Shopengauerning fikricha farzandni dunyoga keltiruvchi erkak va ayol o'rtasidagi sevgi va ehtirosdir. Oila qurish uchun u boshqa omil va sabablarni tan olmaydi.

Demak, birinchi bosqich turli olimlarning turlicha qarashlariga boy. Biroq bu davrda gender psixologiyasi alohida soha sifatida shakllanib ulgurmagan, uning muammolariga bag'ishlangan alohida ishlar qilinmagan.

Ikkinchi bosqich (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari) – gender psixologiyasining predmeti va ilmiy asoslari ishlab chiqilgan bosqich.

Bu davrda ko'plab g'arb mamlakatlarida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Fransiya, Angliya va AQShda ayollar erkinligi uchun harakatlar avj oldi. Bu harakatlar gender psixologiyasi tarixining bir qismi hisoblanmasa ham ilgari gender psixologiyasi predmetiga kirmaydigan muammolarga olimlar diqqatini tortdi.

“Feminizm” so'zi fransuz tilida XIX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan (bu so'z o'zi anglatgan mohiyatdan keyinroq yuzaga kelgan). 1830 yilda esa “erkin ayol” (“emansipirovannaya jenhina” – lotincha “emancipatio” – erkinlik, ozodlik) termini ham paydo bo'ldi. Ushbu jamoat harakatining ishtirokchilari ham ayollar, ham erkaklardir. Harakatning maqsali – ayollarga erkaklar bilan teng bo'lgan ta'lim olish, iqtisod va saylov bilan bog'liq boshqa huquqlar uchun kurashishdir.

Feminizm XVIII asr oxirida Fransiyada inqilob davrida vujudga kelgan. Hukumatga taqdim etilgan “Ayollar huquqlari deklaratsiyasi” ayollarni barcha jamoat tadbirlari, saylovlarda ishtirok etish va lavozimlarni egallash borasidagi huquqlarini erkaklarniki bilan tenglashtirish talab etilgan edi.<sup>1</sup>

Ayniqsa, yuqori natijalarga AQSh feministlari erishgan: ularga maktab o'qituvchilari bo'lishga ruhsat etildi, XIX asrning oxiriga kelib jamoat maktablari o'qituvchilarining uchdan ikki qismini ayollar tashkil etardi.

Ayrim holatlarda feministlar kurashi jiddiy tus olgan. Norozilik namoyishlari, o't qo'yish; oila qurishga, nikohga, farzand ko'rishga, hatto erkaklar bilan har qanday muloqot qilishga qarshiliklar shular jumlasidan.

---

<sup>1</sup> Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006, С.16.

Feminizm o'z tarixida turli bosqichlarni turli ko'rinishlarda bosib o'tgan. Ayrim feminizm yo'nalishlari jinslar tengligini, ayollarning biroz ustunligini e'tirof etsa, ayrimlari yuqoridagi kabi erkaklar bilan har qanday aloqalarga qarshilik qiladi.<sup>1</sup>

Gender psixologiyasi rivojiga ta'sir etgan yana bir omil ikki jins vakillarini birga o'qitishdir. Shunday qilib ayollar psixologiyasi va jinslararo farqlar psixologiyasi vujudga keldi.

1899 yilda P.E.Astafevning "Ayollar ruhiy olami, uning o'ziga xosliklari, yutuq kamchiliklari" kitobi nashr etildi. Unda ayollarga xos holatlar sifatida quyidagilar ko'rsatildi:

- 1) Diqqat jamlanmaganligi;
- 2) Emotsionallik, kayfiyat o'zgaruvchanligi, rashk, iroda sustligi, hissiyotlarni jilovlay olmaslik;
- 3) Nutq jarayonida harakatlar, mimika, ovozda emotsionallikning aks etishi;
- 4) Ijodkor emaslik;
- 5) Siyosiy passivlik.

Erkaklarga xos sifatlar esa yuqoridagilarning aynan aksidir – fikrlash kengligi, diqqat jamligi, kuchli iroda nutq jarayonida qisqalik shular jumlasidandir.

Keyingi tadqiqotlarda jinslar o'rtasidagi ko'pgina farqlar tasdiqlanmadi. Masalan, ayollarning erkaklarga nisbatan ziyakligi G.Geymansning 1911 yil nashr etilgan "Ayol psixologiyasi" ("Psixologiya jenhino") kitobi oldingi ishlardan ajralib turadi.

Ushbu davrga oid yana bir kitob diqqatga sazovor. Ulardan birinchisi 1915 yilda nashr etilgan L.P.Kochetkovaning "Vo'miranie mujskogo pola v mire rasteniy, jivotno'x i lyudey" asaridir. Unda muallif shunday yozadi: "Turli xalqlar erkak vakillarining yo'q bo'lib ketishi irqning qo'shilishiga olib keladi. So'ng erkak jinsi umuman so'nadi... ayollarning oldida esa juda keng imkoniyatlar ochiladi...".

Adolat qaror topishi uchun shuni qayd etish kerakki, erkaklar ham shunday fikr bildirgan o'rinlar mavjud, farqi – ayol jinsining yo'q bo'lib ketishidadir. (Masalan, A.F.Fedorov "Filosofiya obhego dela").

Shunday qilib, ikkinchi bosqichda gender psixologiyasi, uning yo'nalishlari, ayollar psixologiyasi, gender ijtimoiylashuvi kabi tushunchalar shakllandi.

---

<sup>1</sup> Ўша асап. С.18.

Bu bosqich yana eksperimental tadqiqotlarning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Biror sohada, masalan intellektual testlar yechishda u yoki bu jins vakillarining ustunlik qilish holatlari jamiyatda nosog'lom aks sado berishi ham, buning natijasida yuqoridagi kabi testlarning yo'q qilinishi ham shu davr bosqich xususiyatlaridir.

Uchinchi bosqich – psixoanalitik bosqich (XX asr boshlari – 1930 yil). Bu bosqichning boshlanishi Z.Freyd hayoti va faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. “Ayollar psixologiyasi” asari muallifi bo'lmish Freydning psixologiya va butun madaniyatga ta'siri shu darajada ediki, ko'p yillar davomida uning ayollar haqidagi qarashlari shubha ostiga olinmagan va stereotipik xarakter kasb etgan.

Keyinchalik uning ayollar psixologiyasiga oid qarashlari tanqid ostiga olindi. Shuni ham qayd etish kerakki, shu davrgacha barcha talablarga javob beradigan, barchani qoniqtiradigan nazariya yaratilgani yo'q. (Lernan)

To'rtinchi bosqich (1960-1980 yy.) – keng eksperimental tadqiqotlar boshlanishi va ilk nazariyalarning paydo bo'lishi. Ko'rinadiki, uchinchi va to'rtinchi davr oralig'ida (1930-1960) uzilish kuzatiladi. Buning aniq sababi haqida hukm chiqarish qiyin. Anig'i shuki, tadqiqotlar tiklanishi feminizmning faollashishi bilan bog'liq. Psychological Abstracts jurnali ma'lumotlariga ko'ra 1950 yildan 1980 yilgacha jinslar o'rtasidagi farqlar tafovutlar yuzasidan o'ttiz mingta turli hajmdagi ishlar e'lon qilingan.<sup>1</sup>

Ushbu davrda gender psixologiyasida ko'plab empirik faktlar to'plandi, shuningdek bu faktlarni tushuntiradigan konsepsiyalar yaratishga urinishlar bo'ldi. Masalan, Emonor Makkobi va Kerol Jaklinning “Psixologiya polovo'x razlichiy” asari yirik ish bo'ldi.

Beshinchi bosqich (1990 yildan hozirgacha) – gender psixologiyasi barq urib rivojlangan davr. Yangi bosqichda olimlar gender muammolarini o'rganishning spesifik metodikalarini ishlab chiqishdi. Masalan, jinslararo farqlar yaqqol ko'rinadigan sohalar ma'lum bo'ldi va madaniyatlararo tadqiq etilmoqda. Yuqoridagi empirik faktlarni tushuntirishga qodir asoslar izlanmoqda.

2000 yilda Stokgolmda butunjahon psixologlarining 6000 kishilik kongressi o'tkazildi. Kongressning “Gender - I”, “Gender - II”, “Gender: shaxs”, “Ish va gender”, “Gender: kognitiv protsesslar”, “Gender: neyropsixologik va biologik protsesslar” kabi

---

<sup>1</sup> Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006, С.29.

simpoziumlarda o'tkazilishi esa "gender" terminining keng ma'noda – nafaqat sotsial jins, balki umuman jins ma'nolarida qo'llanganligini ko'rsatadi.

Gender psixologiyasining zaif tomoni umume'tirof etilgan nazariyaning yaratilmaganligidir. Ko'pincha ayollar psixologiyasi ayollar tomonidan tadqiq etiladi. Gender psixologiyasi rivojlanishi uchun esa uning tadqiqotchilari orasida erkaklar ko'paymog'i lozim.

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, gender olimlarni tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda.

### **1.3. Gender lingvistikasi muammolari**

Tilshunoslikning XX asrdagi taraqqiyotini va XXI asrdagi muhim yo'nalishlarini sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika kabi chegaradosh yo'nalishlar belgilab bergani bejiz emas, chunki bu sohalar tilni bevosita uning amaliyoti bilan bog'lab o'rganadi. Bu taxlit o'rganish tilshunoslikni yana bir bosqichga ko'tarishi bilan birga til haqidagi tasavvurlarni yanada oydinlashtirishga, uning strukturasi chuqurroq tahlil qilishga, tilning rivojlanishi, insondagi psixologik va fiziologik jarayonlarda tilning ahamiyati kabi masalalarni aniqlashtirishga yordam beradi.

So'nggi paytlarda ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotimiz sahifalarida jinslararo munosabatlarga oid publitsistik chiqishlar sezilarli darajada ko'paydi. Ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish ko'zda tutilgan mulohazalar ancha salmoqli. Bungacha ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda erishilayotgan eng jiddiy natijalar ham aynan jins tushunchasiga u yoki bu darajada taaluqli bo'lib chiqayapti. Modomiki, tilimizda bundan keyin jins, ya'ni gender istilohi faol ishtirok eta boshlar ekan, uning sotsiolingvistik tushuncha sifatidagi mazmunini aniqlashtirib borish kerak bo'ladi.

Hozirgi kundagi gender muammosiga oid tadqiqotlarni V.A.Kirilina<sup>1</sup> ikki yo'nalishga ajratadi:

---

<sup>1</sup> Қаранг: Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах// Гендерные образование в системе высшей и средней школы: состояние и перспективы: Материалы международной научной конференции, Иваново, 24-25 июня 2003 г. – Иваново: Иван.гост.ун-т, 2003. – с.с.132-138.

1. Gumanitar fanlar doirasida gender muammosi. Bunda sotsiologiya, psixologiyada o'rganilgan tadqiqotlar tilshunoslik uchun asos bo'ladi. Genderning kategoriya sifatidagi va antologik maqomi o'rganiladi.

a) gender tahlilining umumilmiy prinsiplari.

- gender – madaniyat va jamiyat taraqqiyotining hosilasi bo'lib qiyosiy harakterga ega; konvensional mohiyat sifatida tan olinadi.
- gender boshqa sotsiomadaniy konstruktlar kabi o'zgaruvchidir.
- gender umumilmiy kategoriyadir; har bir fan doirasida genderning o'ziga xosligini va qaysi metodlar yordamida o'rganilishini e'tiborga olish kerak.

b) gender tahlilining lingvistik prinsiplari.

- gender kommunikativ muloqotning muhim mezoni sanaladi.
- genderning madaniy simvolik tabiati gender bilan bog'liq o'xshatishlarning yuzaga kelishiga olib keladi.
- til va kommunikatsiyalarning gender aspektlarini o'rganish uchun lingvistik metodlar qo'llaniladi. Umuman tilshunoslikda qo'llanilayotgan (sotsiolingvistik, psixolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik va boshqa) metodlar foydalaniladi.

2. Lingvistik genderologiya yoki gender lingvistikasi muammosi. Gender lingvistikasi – ilmiy yo'nalishdagi gender tadqiqotlari tarkibiga kirib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o'rganadi.

Bundan tashqari lingvistik genderologiya har qanday yangi yo'nalish kabi o'ziga xos qirralarga, ya'ni tushunchalar apparati kategoriyalari aniq shakllanmagan yangi yo'nalishdir. Bu yangi yo'nalish o'ziga xos tadqiqot usullari va metodlarining shakllanish jarayonidadir. Shu bilan birga tilshunoslik ilmiy maydonidagi olimlar lingvistik tadqiqotlar metodlaridan hamda, sotsiolingvistika, psixolingvistika va boshqa gumanitar fanlar (lingvistika, tarix, adabiyotshunoslik va boshq.) metodlaridan foydalanishyapti.

Gender lingvistikasining rivojlanishi zamonaviy falsafaning rivojlanishi va gumanitar fanlarning ilmiy yo'nalishlarini almashinishi bilan bog'liq holda XX asrning oxirgi 10 yilliklariga to'g'ri keladi. Gender lingvistikasi umumiy holatda ikki guruh savollarni o'rganadi:

1. Genderning tilda yuzaga chiqishi: leksika, sintaksis, rod kategoriyasi va qator bo'limlarda namoyon bo'ladi. Bunday yondashuvning maqsadi tilda turli jinsdagi

odamlarning tilini ifodalanishi, erkak va ayollarga qanday baho berilishi hamda qaysi semantik oblastlarda ularning ko'proq tarqalganligi, buning asosida qanday lingvistik mexanizm mavjudligi bilan ifodalanadi.

2. Genderning nutqda yuzaga chiqishi: gender qanday vositalar va qanday kontekstlar yordamida ifodalanayotganligi, bu protsessga ijtimoiy faktorlar va kommunikativ vositalar qanday ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi. Hozirgi vaqtgacha bu sohada ijtimoiy determinizm nazariyasi va biodeterminizm nazariyalari raqobat qilib kelmoqda.

Hozirgi kunda gender lingvistikasida genderning turli jihatlari o'rganilmoqda. Ularning ayrimlarini alohida ta'kidlab o'tishni lozim topdik:

- gender va intonatsiya;
- gender va urg'u;
- gender va geminatsiya;
- gender va leksik qatlam;
- gender va ma'no ko'chishi;
- gender va morfologik ko'rsatkichlar;
- gender va sintaktik vositalar;
- gender va frazeologizmlar;
- gender va diskurs;
- gender va pragmatika;
- gender va olamning lisoniy manzarasi;
- gender va virtual muloqot;
- gender va paralingvistik vositalar va boshqalar.

Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarning tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Xususan, sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda.

Til qurilishida jinsiy farqlilik uning kaliti va mexanizmini beradi. Gender tilni tahlil qilishda bir qancha yo'nalishlarga murojaat qiladi:

a) sotsiolingvistika – tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta’siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o’rganadi<sup>1</sup>;

b) psixolingvistika – nutqning vujudga kelish mexanizmini, bolalar nutqining shakllanishi jarayonini, nutqning axborot tashish funksiyasi kabi masalalarni o’rganadi<sup>2</sup>;

v) etnolingvistika – tilning shu til egasi bo’lgan etnos madaniyatiga bo’lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o’rtasidagi aloqani o’rganadi<sup>3</sup>;

g) neyrolingvistika – nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta’siri kabi masalalarni o’rganadi<sup>4</sup>;

d) mentalingvistika – ob’ektiv olam qismlari va uning til tasavvurlari o’rtasidagi munosabat o’rganiladi<sup>5</sup>.

Demak, yuqorida nomi tilga olingan fanlar chorahasida gender lingvistikasi sohasidagi fanlar paydo bo’ladi. Gender lingvistikasi o’zbek tilshunosligida endi tetapoya qilib kelayotgan fan sohalaridan biri bo’lib, lingvistik tushunchalar yordamida genderni o’rganadi.

Gender lingvistikasi sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarida kattalar nutqi, o’smirlar nutqi, bolalar nutqiga e’tibor qaratilgani holda, ayol va erkaklar nutqi, o’g’il bolalar va qiz bolalar nutqi, badiiy asarlardagi gender munosabat borasidagi farqlanishlar; ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo’linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflaridagi farqlar nazarda tutiladi.

Erkaklar va ayollarga xos vaqtni belgilash, erkaklar va ayollarning o’zlariga xos so’zlashuv uslubi, ularning tili va madaniyatidagi farqli jihatlari, genderdan o’zlashgan so’zlarning tilga ta’sir qilishi – dunyo ko’rinishida, til sohasida esa parchalar va mavzular bilan aloqadordir.

Gender lingvistikasining dolzarb muammolaridan biri, gender munosabatda pragmatik o’xshatish, pragmatik ma’nodoshlik, pragmatik shakldoshlik, pragmatik ziddoshlik kabi hodisalar tadqiqi hisoblanadi. Chunki erkak va ayolning alohida-alohida pragmatik olami bo’ladi.

---

<sup>1</sup> А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. “Шарк”, 2001, 70-бет.

<sup>2</sup> Ўша асар. 68-бет.

<sup>3</sup> А.Нурмонов, Ш.Искандарова. Тилшунослик назарияси. – т., “Фан”, 2008, 158-бет.

<sup>4</sup> Ўша асар. 165-бет.

<sup>5</sup> Ўша асар. 164-бет.

Erkak va ayollar nutqining yuzaga kelishida ularning psixologik xususiyati, yoshi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi va oilaviy muhiti alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan gender lingvistikasi doirasida neyrolingvistik tadqiqot yo'nalishini belgilash hozirgi davr tilshunosligining dolzarb muammosi hisoblanadi.

#### **1.4. Genderning hermenevtik jihatdan lisoniy voqelanishi**

Umumiy ko'rinishda hermenevtikani matn, matn deb tushunish mumkin bo'lgan narsani tushunish, interpretatsiya qilish uchun inson yoki ko'pchilikning faoliyati sifatida aniqlash mumkin.<sup>1</sup> Fikrni ishlab chiqarish va ifodalash ijtimoiy-tarixiy vaziyat bilan bog'liq emas, hermenevtikaning tayinlanishi analiz qilinayotgan og'zaki nutqqa turli ijtimoiy me'yorlar bilan ijtimoiy amaliyotning bog'liqligini ko'rsatadi.<sup>2</sup> Ijtimoiy me'yorlar (ko'pchiligi gender me'yorlari hisoblanadi) ularsiz birorta ham adekvat interpretatsiya o'ta olmaydigan pragmatik presuppozitsiya sifatida ifodalanadi. Bu normalarni tilga aloqasini "ikkilamchi modellashtiruvchi sistema" sifatida ifodalash, tilda aytilishini ko'p marta zakodirovannoe sifatida ko'rsatish mumkin.<sup>3</sup>

Germenevtika (yunon. hermeneutike, hermenio – "tushuntiraman") – matnlarni tushunish, talqin qilish san'ati, uni talqin qilish tamoyillari haqidagi ta'limot sanaladi. Uning tekshirish metodi hermenevtik metoddir.<sup>4</sup> Hermenevtikaning markaziy tushunchasi tushunishdir. Shleyermaxer o'zi kashf etgan hermenevtik doirani talqin qilishning asosiy tamoyili hisoblaydi. Bunga muvofiq, butunlik (masalan, matn)ga xos bo'lgan ruh uning alohida qismlarida ham o'z ta'sirini qoldiradi. Bo'laklar butunlik asosi, butunlik esa bo'laklarning ichki uyg'unligi sifatida tushunilishi lozim.<sup>5</sup>

X.G.Gadamer fikricha, tushunish, eng avvalo, nutq orqali amalga oshadi. Demak, tushunish shaxslararo munosabatda voqelanadi. So'zlovchi yoki adibning matn orqali nima demoqchiligini tinglovchi tomonidan to'g'ri tushunish hermenevtikaning vazifasi sanaladi.

---

<sup>1</sup> Богин Г.И. Обретение способности понимать: Введение в филологическую герменевтику / Г.И.Богин. – Тверь, 2001. - 731

<sup>2</sup> Растье Ф. Интерпретирующая семантика (Пер. с франц.) / Ф.Растье – Нижний Новгород: Деком, 2001. – С. 287-288.

<sup>3</sup> Лотман Ю.М. Об искусстве / Ю.М.Лотман. – СПб: Искусство, 1998. – 702 с.

<sup>4</sup> Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –Т.: Akademnashr, 28-bet.

<sup>5</sup> Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы...// Контекст. 1989, 1990, 1991, 1992. – М., 1989-92.

Ko'p asrlik an'analar asosida hermenevtika 3 jihatni o'z ichiga oladi: **“subtilitos intelligendi”** – tushunish, **“subtilitos expligandi”** – sharhlash va **“subtilitos appligandi”** – tadbiq qilish.<sup>1</sup>

Ushbu qurilmalar bir-biri bilan bog'liqligini Gadamer haqli ravishda ko'rsatib beradi, tushunish har vaqt sharhlashdir, sharhlash – tushunishning tashqi formasi (tushunishning asosi), tushunish esa – nutqiy vaziyatda qo'llash jarayoni.<sup>2</sup> Chambarchas bog'liqlik bir jihat ikkinchi jihatdan ustun kelishini yoki barcha hermenevtik aktlar u yoki bu jihatdan sharhlash yoki tatbiq qilishga tortishi mumkinligini inkor etmaydi. Ushbu jihatlarni til va gender tadqiqotlariga qo'llashni aniqlashtiruvchi lingvistik nazariyalarga murojaat qilishdan oldin, ularni logik-filosofik pozitsiyadan ko'rib chiqamiz.

Tushunish umumiy ko'rinishda “Nimani va qanday tushunish kerak?” degan savolga javob berishga chaqiradi. F.Shleymaxer ushbu tushunchani maqsadlilik pozitsiyasidan aniqlaydi “... Men nima kerakligini ko'ra olmasam va qura olmasam, shuni tushunmayman”.<sup>3</sup> Boshqacha aytganda tushunish unga yo'naltirilgan narsani tasavvur qilishni nazarda tutadi, tasavvur u bir qancha “muammoli” talaffuzlar – interpretatsiyani talab qiluvchi til formalariga to'qnash kelganda boshlanadi. Tushunishning asosiy yo'nalishi, semantik salohiyat, fikriy xulosa chiqarish sharti – kontekst hisoblanadi. Har qanday tushunish “antitsipatsiyadan” yoki “fikrni tashlashdan” boshlanadi (Gadamer) yoki gipotezalarni to'g'ri deb topilgan hayollar orqali oldinga surishdan boshlanadi. Xulosa mavjud bilimlarni kognetiv semantikada qo'llaniladigan modellarga yo'naltirish yo'li asosida chiqariladi, masalan, so'z prototip bilan mos keladi, talaffuz va matn – ssenariy va freym ko'rinishidagi tushunchaviy strukturalarga mos keladi.

Tushunishning tartibli xarakterdagi muammolari hermenevtikaga ham, psixologiya, lingvistika va boshqa fanlarning vakolatlariga qarashli, uning yechimiga ko'plab yondashishlarni va albatta turlicha qarashlarni tushunishning fenomenini ifodalovchi bir-biri bilan har doim ham mos kelmaydigan nazariy konsepsiyalarni vujudga keltirdi.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> (Богнаров, 2008).

<sup>2</sup> Гадамер Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. (Пер. с нем)/Ганс-Георг Гадамер. – М.: Прогресс, 1988. – 364 с.

<sup>3</sup> Бочкарев А.Е. Семантический словарь / А.Е.Бочкарев. – Нижний Новгород: Деком, 2003: 21.

<sup>4</sup> Нишанов В.К. Феномен понимания: когнитивный аспект / В.К.Нишанов. – Фрунзе: Илим, 1990.

Tushunish – dekodlash, tushunish – tushuntirish natijasi, tushunish – baho, interpretatsiya, “borliqni sintezlash” va boshqalar sifatida G.I. Bogin tushunishni mavjud bo’lgan yoki ko’rinmagan noma’lum narsalarni aql bilan egallash deb aniqladi.<sup>1</sup>

O’ylanayotgan fikrlardan xulosa chiqarishda alohida protseduralarni qo’llash kerakligi tushunib yetilganda, semantik kompentatsiyalarni aniqlash imkoniyati bo’lmagan hollarda tushunish sharxga aylanadi. Gadamer so’zlari bilan aytganda “qachonki biror-bir matnning ma’nosini to’g’ridan to’g’ri tushunish imkoniyati bo’lmaganda, o’sha joyda interpretirovat qilinadi”.<sup>2</sup> Har qanday interpretatsiya “sen nimani nazarda tutayapsan?”, “sen nimani o’ylayapsan?” yoki “nima uchun buni gapiryapsan?” kabi savollarga aniq javob topish uchun turtki bo’ladi. Masalan: “une femme est une femme” (“ayol - ayolda”) so’zini tautologik aniqlash G’aniqG’ vs G’mavhumG’ tomonlar asosida aniqlash mumkin yoki femme<sub>1</sub>G’aniqG’ vs femme<sub>2</sub>G’mavhumG’ har ikkala “femme”ni qo’llab, ularning ma’nosini aniqlash mumkin.<sup>3</sup> Shu tariqa kodlashtirilgan xarakterni informantlarning ko’rsatmalari ham tasdiqlaydi. Taklif etilgan frazalarda ko’pchilik ayollarning (tashqi) ko’rinish belgilari yoziladi **G’kuchsizG’, G’koketlivaG’, G’pokornaG’, G’vetrenaG’, G’sergapG’, goh-gohida G’muloyimG’, G’uyatchanG’** va boshqalar. Bu holatda informantlar faqat shaxsiy tajribalardan foydalanmay, balki, “ayol”ning ko’p qirralarini aniqlovchi belgilarni to’plovchi doimiy tushunchalardan foydalanadi.

Sharhlash tashqi maqsadlarga bo’ysunishi bilan, xulosalar bir qancha aytilmagan maqsadlar bilan kelishganda tatbiq qilishga aylanadi. X.G. Gadamer ta’kidlaganidek, “Interpretator turgan zamonaviy vaziyatda matnni tushunishda har doim tatbiq etishga o’xshamagan narsaga joy topiladi”.<sup>4</sup> Shunday qilib interpretatorning qimmatbaho ustanovkasining bir qismi hisoblangan aytilayotgan pragmatik kontekstdan kelib chiqib sharhlash (tushuntirish) bog’liq bo’lib qoladi. Shuni nazarda tutish kerakki, matnga qo’llanilayotgan strategiya o’zining maqsadlariga ega, uning asosida tadqiq qilinayotgan material bo’linadi va shunga bog’liq holda interpretantlar saralanishi natijasida lingvistik va

---

<sup>1</sup> Богин Г.И. Обретение способности понимать: Введение в филологическую герменевтику / Г.И.Богин. – Тверь, 2001. – С. 3.

<sup>2</sup> Гадамер Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. (Пер. с нем)/Ганс-Георг Гадамер. – М.: Прогресс, 1988. – 397 с.

<sup>3</sup> Растье Ф. Интерпретирующая семантика (Пер. с франц.) / Ф.Растье – Нижний Новгород: Деком, 2001. – С. 154-156.

<sup>4</sup> Гадамер Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. (Пер. с нем)/Ганс-Георг Гадамер. – М.: Прогресс, 1988. – 364 с.

pragmatik kontekst tushuniladi va tadqiq qilinayotgan til davomiyligi mundarijasini tiklash imkonini beradi.

Genderning tilda tuzilishini ifodalash asosan ikki modeldan tuzilgan bo'ladi: - gender fikrlari tuzilish mexanizmini uning paydo bo'lish va interpretatsiya (aytilish) aspektlarida tushuntirish imkonini beruvchi kognetiv-pragmatik va stilistik erkak yoki ayol jinsiga taalluqligidan darak beruvchi; semiotik markerlar to'plami (madaniy kodlar) singari "gender display" (I.Goffman)dan tuzilgan tilning "yuzaki" yozilishi va aniqlashga asoslangan.

Ushbu modellar bir-biridan ajratilmagan, balki bir-biri bilan bog'liq va bir-birini o'zaro to'ldiradi. Masalan, kommunikativ uslubni genderga alohida belgilarini tadqiq qilish.

## II BOB

### O'ZBEK TILIDA GENDERNING IFODALANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

#### 2.1. Muloqot jarayonida genderning yuzaga chiqishi

Tilshunoslikda an'anviy tahlil usullarida kuzatishlar olib borilishi bilan birgalikda, uni sotsiologiya, psixologiya hamda boshqa fanlar bilan bog'lovchi yangi tahlil usullariga qiziqish kuchaymoqda. Bu tahlil usullari bilan bog'liq tilshunoslikda yangi zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ana shunday yo'nalishlardan biri – lingvogenderologiyadir. Bu fanning tadqiq manbai – tilning gender xususiyatlarini o'rganish bo'lib, bunda ikkita masala: ayollar va erkaklar nutqining tafovutlari hamda o'ziga xos xususiyatlari; til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklariga e'tibor qaratiladi.

Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Shu jihatdan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

“Diskurs” atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib (discours), matnning og'zaki so'zlashuv shakli, dialog, bir-biriga ma'no jihatidan bog'langan mulohazalar yig'indisi, nutqiy asar ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda diskurs atamasi ko'proq og'zaki matn ma'nosini bildiradi. Har qanday talqinda ham diskurs matn tushunchasi bilan uzviy aloqador. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikda diskurs va matn tushunchalarining o'zaro munosabati masalasi ilmiy munozaraga ham sabab bo'lgan. Shu o'rinda tilshunos Sh.Safarovning quyidagi fikrlari asoslidir: “Ma'quli, qiyoslanayotgan bu ikki hodisani “giperonim” – “giponim” munosabatida o'rganishdir. Diskurs inson ongli faoliyatining ma'lum bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning bir ko'rinishidir. Diskurs kategoriyasining bu xildagi keng ma'noda, umumlashtiruvchi mazmunda talqin qilinishi

muloqot tizimi, inson ongli faoliyati bilan qiziquvchi boshqa fan sohalari – falsafa, sotsiologiya, psixologiya, kibernetika kabilar uchun allaqachonlar e'tirof etilgan qoidadir".<sup>1</sup>

Muloqot jarayonida ayol va erkaklarga xoslikni aniqlash qiyin emas. Shu o'rinda diskursning ayrim gender xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Kuzatishlarimizni jadval asosida ifodalashni ma'qul ko'rdik.

	<b>Erkaklar</b>	<b>Ayollar</b>
Suhbatni boshlash	Salomlashish jarayonining qisqaligi Ayrim hollarda salomlashish jarayoni amalga oshmasdan to'g'ridan to'g'ri muddaoga o'tish	Salomlashish va hol-ahvol so'rashish jarayonining nisbatan uzunligi
Suhbatning borishi	Oldindan rejalashtirilgan fikrlarning bayon etilishi Erishilgan natijalar eng ko'pi bilan 50 foizga bo'rttiriladi Dalil va faktlar, misollarning ko'proq qo'llanilishi Sitatalar sifatida buyuk shaxslar, olim va faylasuflarning fikrlarini keltirish Aforizmlar, latifalar, maqollarning ko'proq ishlatilishi Sukut saqlash jarayonining uzunroq davom etishi Suhbat davomida uzun pauzalarning qo'llanilishi Suhbat jarayonida suhbatdoshning so'zi kamroq bo'linadi, odatda erkaklar suhbatdoshning fikrini	Suhbat davomida bir xil fikrlarning takroriy qo'llanilishi Erishilgan natijalar odatda 200 va undan ortiq foizga bo'rttirilishi mumkin Emotsionallikni aniq namoyon etilishi Boshqa shaxslar tomonidan aytilgan gaplarning suhbatdoshga yetkazilishi Sitatalar sifatida o'ziga tanish bo'lgan insonlarning gaplarini keltirish Suhbat jarayonida sukutning deyarli vujudga kelmasligi, sukut vujudga kelgan taqdirda uning qisqaligi Suhbat davomida pauzalar

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, - Тошкент, 2008. 226-227 бетлар.

	<p>oxirigacha eshitishadi</p> <p>Aniq, bir ma'noli gapirish</p> <p>Siyosiy-iqtisodiy, professional mavzular haqida ko'proq suhbatlashish</p> <p>Suhbat jarayonida maqtanish predmeti sifatida odatda professional yutuqlar, intellektual bilimlar, yangi texnika va texnologiyalar bilan tanishganlik va boshqalar o'taydi.</p> <p>Gaplar va jumlalarning qisqa va lo'ndaligi</p>	<p>deyarli qo'llanilmaydi, odatda ularning suhbatlari uzluksiz tovushlar yig'indisi kabi bo'ladi</p> <p>Suhbatdoshning so'zi tez-tez bo'linadi. Suhbatdoshning so'zini bo'lish ko'pincha miyaga to'satdan kelgan fikrni bayon qilish uchun amalga oshiriladi ("Eureka" effekti)</p> <p>Majhul yoki ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanilishi</p> <p>Kiyim-kechaklar, kosmetik vositalar, oilaviy muammolar haqida ko'proq suhbatlashish</p> <p>Suhbat davomida maqtanish predmeti sifatida uy jihozlari, avtomashinalar, taqinchoqlar, kosmetik vositalar va boshqa moddiy boyliklar o'taydi.</p> <p>Gaplar va jumlalarning uzun tuzilishi.</p>
--	---	--

Diskursning gender xususiyatlari haqida gap ketganda ayollar va erkaklar nutqida qo'llaniluvchi leksemalarni qiyoslash ham alohida ahamiyat kashf etadi. Tilshunoslarning kuzatishlaricha, tildagi yangilanish jarayonlari ayollarga nisbatan erkaklar tomonidan tez qabul qilinib, ilmiy va kasb-hunarga oid yangi leksemalar erkaklar nutqida ko'proq va faolroq qo'llanilar ekan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Потапов В.В. Многоуровневая стратегия в лингвистической гендерологии // Вопросы языкознания. 2002, 1, С.103-130

Yana bir tilshunosning kuzatishicha, ayollar kundalik muloqotda neologizmlardan unumli foydalangan holda, rasmiy muloqotda ulardan qochishga harakat qilar ekan.<sup>1</sup> Shuningdek, baho bildiruvchi sifatlarining qo'llanishiga ko'ra ham erkak va ayollar nutqi farqlanar ekan. Bunday birliklarning faol qo'llanilishi ayollar nutqining harakterli xususiyatlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.<sup>2</sup> Ayol kishi tabiatan nozik yaratilganligi sababli, suhbat jarayonida ham jozibador va bo'yoqdor leksemalarni, shaxsiy munosabat ifodalovchi so'zlarni, ayniqsa, ijobiylik semasiga ega bo'lgan leksemalarni ko'p qo'llaydi. Odatda suhbat predmeti bir oz bo'rttirilgan holda ko'rsatiladi. So'zlashuv jarayonida ayollarda emotsionallik kuchliroq bo'ladi: hayratlanish, sevinish, hafa bo'lish, qo'rqish kabi ruhiy-fiziologik holatlar yorqinroq aks etadi.

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xosligi ular nutqida qo'llanilgan jummalarni taqqoslaganda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, ayollar suhbatdoshining fikriga qo'shilish yoki qo'shilmasligini hamda shaxsiy munosabatlarini ifodalalar ekan, suhbatdoshini hafa qilib qo'ymaslik uchun ehtiyot bo'lib jumla qurishadi, ya'ni o'z e'tirozlarini, noroziliklarini ifodalash uchun tilning sintaktik qurilishida mavjud bo'lgan neytralroq konstruksiyalardan, qoliplardan foydalanishadi. Jumladan, keyinroq borsak bo'lmaydimi, keyinroq borsak bo'lar ekan, keyinroq boraylik, keyinroq bora qolaylik, keyinroq bora qolaylik, maylimi?, keyinroq borsak nima deysiz? va h. Erkaklar esa bu holatda keyinroq boramiz, keyinroq borsak bo'ladi, keyinroq ham borsak bo'ladi, keyinroq borsak ham bo'ladi kabi ifoda shakllaridan foydalanishadi.

G'arb tilshunoslarining fikricha, ta'kidli tarkibli so'roq gaplar (rus tilidagi "xvostoo'ye voproso" Tebe eto nraivitsya, ne tak li?) ingliz tilida so'zlashuvchi ayollar nutqining asosiy sintaktik jihatlaridan biridir.<sup>3</sup>

Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda ko'proq nutqiy muloqotda xushmuomala bo'lishga, odob saqlashga, suhbatdoshiga nisbatan hurmat ko'rsatishga harakat qilishlaridir.

Ayol va erkaklarning yozma hamda og'zaki nutqidagi farqlar yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Ushbu farqlarning asosida jinslarning psixologiyasi, tafakkuri o'rtasidagi

---

<sup>1</sup> Lakoff R. 1975 – Language and woman's place. N.Y., 1975.

<sup>2</sup> Eckers Th. 1994 – Features of women: assessing stereotypic beliefs about gender subtypes // British journal of social psychology. 1994. №33.

<sup>3</sup> Chandler M.A., Basset D.L. 1989 – Tag questions and powerfulness: quantitative and qualitative analysis of a course of psychotherapy // Language in society. 1989, V, 18. № 1.

tafovutlar, jamiyatdagi gender parametrlarini belgilovchi normalar jamiyatda insonlarning ongi va tafakkuri, ijtimoiy-ma'naviy qarashlari asosida shakllanadi.<sup>1</sup> Bundan xulosa qilish mumkinki, o'zbek tilida faqatgina ayollargagina xos bo'lgan so'zlashuvning gender xususiyatlari, ayrim horijiy tillarda ikkala jins vakillariga ham xos bo'lishi mumkin. Bu fikrni dalillash kelgusida o'zbek tilining gender xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar zimmasiga tushadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida diskursning gender xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar kesimida muhim ahamiyatga ega.

## **2.2. Personajlar nutqida genderga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi**

Ma'lumki, ayollarning o'zaro gaplashadigan "mahram gaplari" (Cho'lpon), asosan, ular nutqida qo'llanadigan leksik va frazeologik birliklar bilan alohida ajralib turadi. Chunki tilimizda shunday so'z va iboralar borki, ular faqat erkaklar yoki ayollar tomonidangina qo'llanilishi mumkin. Garchi o'zbek erkaklari va ayollari nutqida qo'llanadigan til birliklari yapon erkaklari va ayollari nutqida ishlatiladigan til birliklari kabi keskin farqlanib turmasa ham<sup>2</sup>, bu haqda fikr yuritishga arzigulik farqlar topiladi.

Ayollar nutqi erkaklar nutqidan fonetik, leksik va grammatik jihatdan ancha farq qiladi. Ammo bundan maxsus ayollar tili yoki erkaklar tili mavjud degan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Kuzatishlardan aniqlanishicha, erkaklar va ayollar nutqida biologik va psixologik jihatdan qarama-qarshilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Biolog olimlarning ta'kidlashicha qizlarning tili o'g'il bolalarga nisbatan ancha tez chiqar ekan. Ular dastlab turli tovushlarni talaffuz etib, shu asosda so'zlarni, jummalarni talaffuz qila boshlar, o'g'il bolalar esa butun-butun tayyor jumlar talaffuz qilar ekanlar. Sakkiz yoshga qadar qizlar o'g'il bolalarga qaraganda sezilarli darajada me'yordagi nutqqa ega bo'ladilar.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Қаранг: Кирилина Л.В. Категория "gender" в языкознании // Женщина в российском обществе. 1997. 2. 15-20. Гриценко Е.С. Язык как средство конструирования гендера. Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Нижний Новгород, 2005.

<sup>2</sup> Японияда махсус эркак ва аёллар тили (нутқи) мавжуд бўлиб, улар, ҳатто махсус тил бирликлари билан фарқланади. Қаранг: Алпатов В.М. Япония. Язык и общество. М., 1988. С. 70.

<sup>3</sup> Комсов В.В. Язык города. – М., 1991, С.100

Xotin-qizlar nutqidagi fonetik o'ziga xoslik nutqiy odatning turli vaziyatlarida aniq yuzaga chiqadi. Erkak kishining ovozi yo'g'on, kuchli, bir oz dag'allik aralashgan bo'ladi:

“ – Ho'...xola, turing, kelib qoldik!”.

(Cho'lpon)

“Tolib o'tirgan yerida do'ng'illadi:

– YUrgandir, daydib. Keladi. Och qolib, sillasi qurib qaytib keladi”. (Said Ahmad)

Talaffuzda ayollar erkaklardan ovoz tembri, pauzalarning harakteri, nutq tempi bilan farqlanadi. Ayollar ancha mayin, ingichka ovozda, urg'uni yanada cho'zib so'zlaydilar.

“ - Shunaqa ekanmi? Voy, tovvo-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy, tovvo-oy... – deb uning eng qitig'i keladigan joylariga chang solishardi”. (Cho'lpon)

“Hoy kim bilan gaplashyapsan, bolam?”. (Said Ahmad)

Xotin-qizlar xarakteri uchun xos bo'lgan xususiyatlardan biri xis-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishida ko'rinadi. Bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi.

“ - Voy, o'la qalay!... Jinni bo'libman men! – deb (Sultonxon) qichqirdi va yuzini yostiqa qo'yib, chap qo'li bilan boshiga mushtladi...

- YOshlik qilibmiz, aylanay. Bilmabmiz. U ashulachi qizning dovrug'i dunyoni bosdi... Hammaning og'zida o'sha. Eringizday uchiga chiqqan xotinboz u bulbulnikiday ovozni o'z qulog'i bilan eshitsin-u darrov sovchi qo'ymasini – bo'ladimi, qalay?

Kelinchak birdaniga yotgan yeridan turib, Umrinisabibining yelkasiga osildi:...”. (Cho'lpon)

“Voy, nega ertaga kelarkan, bugun kelsin”. (Said Ahmad)

O'zbek

xotin-qizlari nutqiga xos “aylanay”, “girgitton”, “o'rgulay”, “qoqindiq” kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatlarida qo'llanadi: “Kechqurun ko'cha eshigi taqilladi-yu, kampirning “Voy, o'rgilay”, “Voy, girgitton” degan tovushi eshitildi” (A.Qahhor). Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini “voy” undovining qo'llanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin: “ma'lum bo'lishicha, “voy” undovi o'ndan ortiq ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas,

sarosimalanish, koyish, alam kabi qator ichki holatlarning yuzaga chiqishida, bu so'z ma'lum darajada ahamiyatga ega...".<sup>1</sup>

“ – Voy, aylanay! Enaxon! Jonim o'rtog'im! Bormisiz? – deb paranjisini qo'liga olib *Salti yugurdi*”. (Cho'lpon) Erkaklar nutqida “oshna”, “boja”, “jo'ra”, “onasi” kabi undalmalar uchrasa, ayollar nutqida “ovsin”, “dugonajon”, “egachi”, shuningdek turmush o'rtog'iga qarata “dadasi” murojaat shakllari mavjud.

“ – Oyi, o'zim? – so'radi bir narsa deyish uchun. -  
*O'choqqa o't qala. Dadang tushmagur-a, dadang tushmagur!*”. (O'lmas Umarbekov)

Ayollar nutqi hudud jihatdan ham o'ziga xoslikka ega bo'lib, qishloqlarda yashovchi ayollar nutqida “o'lsin”, “men o'lay”, “voy o'lay”, “jonini olsin” kabi so'zlar ancha faol qo'llanadi<sup>2</sup>: “Voy o'lay, qanaqa dadangiz?”, “...o'lsin, tush ham yomon narsa ekan...” (T.Jo'raev).

O'zbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkaklar nutqidagina qo'llanadi. Jumladan, “Burnini yerga ishqamoq”, “Baqbaqangdan akang”, “Dabdalasini chiqarmoq”, “Jig'ini ezib qo'ymoq”, “Otimni (nomimni) boshqa qo'yaman”, “Quling o'rgilsin” (yigit-yalang nutqida ishlatiladi)<sup>3</sup> kabi iboralar asosan erkaklar nutqida qo'llanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi: “Burnini yerga ishqayman uning. Meni haqorat qilishi yetmay, yana ustimdan arz qilishi ham bormi?” (I.Rahim).

“Boshida danak chaqmoq” (varianti: “Boshida yong'oq chaqmoq”). “Jonini olsin”, “Sovuniga kir yuvmoq”, “Esim qursin” kabi iboralar esa, asosan, ayollar nutqida uchraydi: “Esim qursin, esimdan chiqibdi, kechiring, Vera Pavlovna (S.Nazar).

Bunday me'yor buzilgan hollarda esa adresant o'z nutqida jinsiga nomunosib til birligini qo'llagan bo'ladi. Shuning uchun ham yozuvchilar badiiy asarlarda personajlar nutqini individuallashtirish, uning o'ziga xos qiyofasini ochish maqsadida erkaklar nutqi uchun xos bo'lgan iboralarni ataylab ayollar nutqida keltiradi: “Asrora jindek kayf qilib qolgan ekan, o'ynab kelib, Xolmatjonning to'g'risida turib qoldi:

<sup>1</sup> Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.

<sup>2</sup> Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жihatдан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 64-66 бетлар.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978. 292-бет.

- *O'rtog'imni hafa qilsang, bilasanmi, nima qilaman, geroyligingga qaramay, jig'ingni ezib qo'yaman!*" (S.Ahmad).

Insonning ish joyi, yoshi va ijtimoiy kelib chiqishi uning nutqida o'z aksini topadi. Masalan: Miryoqub boshining qattiq og'riyotganligini: "*Boshim siqilgan toy paxtadek og'riyapti*" (*Cho'lpon*) jumlasini orqali ifodalaydi. Bunday o'xshatishni faqat paxta qayta ishlash korxonasida ishlovchi kishigina qo'llashi mumkin. YUqoridagi jumlaning yuzaga kelishida Miryoqubning ish joyi yoki kasbi ta'sir etgan.

YUqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, erkak va ayol o'rtasidagi genderologik farqlarni badiiy asarlarda, personajlar nutqida ham kuzatish mumkin.

### 2.3. Noverbal aloqalarda genderning yuzaga chiqishi

O'zbek tilida ham dunyodagi barcha tillar kabi, fikr faqat lingvistik yo'l bilangina emas, balki lingvistik bo'lmagan (ekstralingvistik yoki paralingvistik) vositalar – imo-ishoralar hamda implitsit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi.<sup>1</sup> Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lum axborotni qisqa va lo'nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan imo-ishoralardan (noverbal vositalardan) foydalanadi.<sup>2</sup> Nutqni to'ldiruvchi noverbal vositalarda ham genderologik farqlarni kuzatish mumkin. Shuning uchun, ekstralingvistik asoslardan bo'lgan noverbal vositalarni ham gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarur. Chunki erkak va ayolning o'ziga xos mimikalari va jestlari bor.

Professor S.Mo'minov o'zbek erkak va ayol kommunikantlari uchun xos bo'lmagan noverbal vositalarni quyidagicha tasniflaydi:<sup>3</sup>

O'zbek erkak kommunikantlari uchun xos bo'lmagan noverbal vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin (tasniflashda tipiklik nazarda tutildi):

- qosh uchirib, chimirib gapirish;
- noz qilishni ifodalovchi ko'z suzish;
- sababsiz og'izni to'sib gapirish;
- hayronlik, bexabarlik, mensimaslik ma'nosida lab burish;

<sup>1</sup> Қаранг: Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. Андижон. 1980.

<sup>2</sup> Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Т. “Фан”. 2008, 3-бет.

<sup>3</sup> Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жихатдан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 64-66 бетлар.

- achinish ma'nosida tilni tishlab, boshni qimirlatish;
- o'pishib (ayniqsa, o'z jinsiga mansub kishilar bilan) ko'rishish;
- jimjiloqni labga tekkizib, uyalib, yerga qarab turish;
- ko'rsatkich barmoqni iyakka qo'yib, o'y surish;
- suhbatlashib turganda o'ng yoki chap tomonga bir siltanib qayrilish va boshni hiyol pastga egib, suhbatdoshdan arazlash;

- kommunikant bilan o'ta yaqin (50-60 santimetrdan qisqa) turib so'zlashish;

O'zbek ayol kommunikantlari uchun xos bo'lmagan noverbal vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kommunikantning yuziga tik boqib turib gapirish (tinglash);
- qo'lni arra (paxsa) qilib gapirish;
- ichkilik ichishga ishora ma'nosida tomoqqa chertish;
- qo'lni "chars" etkizib urib, siltab, mahkam qisib, tortib... so'srashish;
- baland ovozda "xo-xo"lab kulish;
- bosh barmoqni orqaga qayirib, "men" ma'nosida ko'krakka ishora qilish;
- muhabbat izhori ma'nosida "do'st" deb ko'krakka urish.

Erkak va ayolning ruhiy-hissiy holati va ichki kechinmalari turli holatlar orqali namoyon bo'ladi. Odatda, ayollarda emotsionallik kuchli bo'lib, ular his-hayajonga erkaklarga nisbatan tez beriladi, erkaklarda esa ayollarga nisbatan bosqlikni kuzatishimiz mumkin. Bu xususiyatlar noverbal vositalar orqali yuzaga chiqadi. Chunki ayol va erkakning o'ziga xos individual harakati, jest va mimikalari bor.

*"Otabek g'ayri ixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi". (A.Qodiriy)*

*"YUlduz opa yerga qaradi. Qizi qoshiqlarni ko'tarib kelganda esa ro'molining uchi bilan ko'zini artganicha qaytib oshxonaga chiqib ketdi". (U.Hamdami)*

Har ikki misolda ham ruhiy-hissiy holat ifoda etilmoqda. Bunday holatlarda insonda kechayotgan ichki o'zgarishlar ayollar va erkaklarda turli holatlar orqali namoyon bo'ladi.

Lab va qosh bilan bog'liq mimik harakatlar – labni burish, labni cho'chchaytirish, labni tishlash, qosh qoqish ko'proq ayollarga xos hisoblanadi.

*" – Siz kim bo'libsiz o'zi? Nega qariyani haqorat qildingiz? Boring, kechirim so'rang!  
- Voy vu-uy... – juvon labini cho'chchaytirdi". (G'.Hotamov)*

*“Nasima noz-karashma bilan o’rtaga chiqib, sho’x o’ynay boshladi. U dam domlaga, dam Mahvashga qarab qoshlarini uchirib muqom qilardi. (T.Ashurov)*

G’azab, qahr mazmunini ifodalaydigan yuz bilan bog’liq harakatlarni ko’proq erkaklarda kuzatish mumkin.

*“So’fi ular uyga kirib olguncha eshik oldida bo’zarib-gezarib turdi”. (Cho’lpon)*

Noverbal vositalarda gender o’ziga xoslik deganda faqatgina erkak va ayolning o’ziga xos individual harakat, jest va mimikalarini emas, balki milliy harakterdagi imo-ishoralarini ham e’tiborga olish kerak.

Milliy harakterdagi noverbal vositalar ma’lum xalq, millat yoki elatlar aloqalarlashuvida ishlatiluvchi ishoralar sanalib, ishlatilish ko’lami chegaralangani bilan harakterlanadi. Bunday noverbal vositalar milliy xususiyatlarni o’zida gavdalantiradi, urf-odatlar, ritual va adab xatti-harakatlari bilan aloqador bo’ladi.

Mashhur sharqshunos olim German Vamberi arab, fors, o’zbek tillarinigina emas, balki bu xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini ham puxta bilgan. Uning muomalasidan, gaplaridan horijiy, g’ayridin ekanligi butunlay sezilmaydi. Islomning sharq xalqlari tarixi va madaniyatining bilimdoni sifatida aholi o’rtasida hurmat va e’tibor qozonadi. Ammo bir o’tirishda juda yoqimli muzikadan ta’sirlanib, beixtiyor kuy maromiga qarab oyog’ini silkita boshlaydi. Bu harakati esa uni davra ahliga uning yevropalik ekanligini oshkor qilib qo’yadi. Chunki sharq xalqlari orasida kuy, ashuladan rohatlanish belgisi oyoq harakati bilan emas, balki boshning gorizontal holatda asta-sekin tebranishi bilan ifodalanar edi.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, bosh irg’ash, oyoq silkitish turli xalqlarda turlicha ma’no ifodalaydi.

*“Xat yozib tur, - dedi dadam. Bosh irg’ab ko’chaga chiqdim”. (O’.Umarbekov)*

YUqoridagi parchada bosh irg’ab konstruksiyasi o’zbek xalqi orasida tarqalgan rozilik, tasdiq ma’nosini ifodalovchi imo-ishorani aks ettiradi. Agar yuqoridagi matn bolgar tiliga so’zma-so’z tarjima qilinsa, xat yozib turmaslik ma’nosini ifodalaydi. Chunki bolgarlarda yuqoridagi imo-ishora inkor ma’nosini bildiradi.

O’zbeklarda boshning vertikal harakati tasdiq, gorizontal harakati inkor ifodalaydi. Bolgarlarda esa tasdiq boshning gorizontal harakati (tebranish) orqali, inkor ma’nosi bo’lsa, boshni orqaga tashlash (suhbatdoshdan uzoqlashish, ma’lum narsa, predmet, hodisalardan o’zini tortish) orqali ifodalanadi. Inkorning bu kabi ifodalanishi arablarda (Suriya) ham

---

<sup>1</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. Андижон, 1980, 4-бет.

kuzatiladi. Inkor va tasdiq ifodalashning uchinchi shaklini esa Janubiy Italiya, Afina greklari va neopalanlar, kalabriylar muomalasida uchratish mumkin.<sup>1</sup> Unda tasdiq kallani oldinga harakatlantirish, inkor orqaga tashlash bilan bildiriladi.

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, verbal va noverbal vositalarning leksik ifodalanishida ham ularning "ayollar" va "erkaklar"ga xosligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayollarga xos bo'lgan birliklarning ohangdorligi "yumshoq", erkaklarga xos bo'lgan birliklarning ohangdorligi esa "dag'alroq" talaffuz qilinadi. Gender lingvistikasi yo'nalishida tadqiqot ob'ekti qilib olingan hodisalar tilning barcha bo'limlaridagi hodisalar va tiplar uchun umumiylik kasb etadi hamda ularning sistem tadqiq etishda qo'l keladi.

#### **2.4. Gender namoyon bo'lishining amaliy asoslari**

Bu ishda tilni shakllanish ko'rinishlariga gender faktorlari va odamlarga ijtimoiy omillarning ta'sirini o'rganishdagi erkin assotsiativ eksperiment ma'lumotlari ko'rib chiqiladi. Olingan ma'lumotlar gender faktoriga sotsiolingvistik kategoriya statusini berishdan ko'ra, uni o'zgaruvchan intensivlikni parametri sifatida qarashga imkon beradi. Tajribalarning asosiy natijalari o'zbek tilida androtsentrizm aniq ifodalanmagan va olingan ma'lumotlar analizini gender va metagender ko'rinishida ajratish kerak. Eksperiment shuni ko'rsatdiki, gender faktori boshlang'ich fikrlar doirasida "boshqaruvchi emas" parametridan uzoqda ekanligi, balki inson assotsiativ xulq-atvori xususiyatlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik holatlarda insonlarning qanday sharoitda yashashi va o'ylashi, ularning qaysi jinsga mansubligidan qat'iy nazar, kuchliroq ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu yerda yozilayotgan eksperiment inson shaxsini sotsiobiografik va psixofiziologik karakteristikasiga bog'liq holda gomogen til doirasida, tilning paydo bo'lish yo'nalishlarini o'rganish bo'yicha ko'plab eksperimentlarning kichkina ko'rinishi hisoblanadi.

O'rganish uchun tanlab olingan shaxslar kontingenti so'zlashuvi (faqat so'zlashuvi emas, ularning mentali ham) ilmiy analizlar uchun kamdan-kam predmet bo'ladi. Bizning informantlar qilib tanlab olingan odamlar Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy istiqlol g'oyasi: huquq va ma'naviyat asoslari yo'nalishi 1-bosqich talaba

---

<sup>1</sup> Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Т. "Фан". 2008, 52-бет.

yigitlaridan 44 nafari hamda Filologiya fakulteti 1-bosqich talaba qizlaridan 48 nafari tashkil qiladi.

Eksperiment uchun 12 ta soʻz tanlab olindi: “baxt, gapirmoq, sevmοq, erkak, ayol, farzand, osmon, dengiz, ibodat, chiroyli, yashil, muqaddas”.

Soʻzlar quyidagi talablar asosida tanlab olindi:

- Soʻzlar gapning turli boʻlaklariga tegishli boʻlishi kerak;
- Soʻz oʻz mazmunida baholash elementlariga ega boʻlishi kerak;
- Soʻzlar oʻzbek tilining yuqori chastotali leksikasiga tegishli boʻlishi kerak;
- Ayrim soʻzlar gender boʻyoqdorlikka ega boʻlishi kerak.

Tahlil qulay boʻlishi uchun har bir soʻz alohida jadvalda ifodalandi.

<b>“Baxt”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>
	Sogʻliq – 35, omad – 17, oila – 16, ota-ona – 16, quvonch – 16	YAqinlarim – 33, sogʻlik – 18,

<b>“Gapirmoq”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Sevmοq”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Ayol”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Farzand”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Osmon”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Dengiz”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Ibodat”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Chiroyli”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“YAshil”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

<b>“Muqaddas”</b>	<b>Talaba yigitlar</b>	<b>Talaba qizlar</b>

## XULOSA

1. Gender ko'p aspektli tushuncha hisoblanadi. Shu bois gender bilan bog'liq muammolar ko'pgina sohalarning tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Xususan, sotsiologiya, psixologiya, kognitologiya, lingvistika kabi fanlarda gender turli aspektlarda tadqiq etilmoqda. Gender – ijtimoiy qurilma sifatida tilshunoslik fanida ham o'ziga xos o'rin tutadi. Shuning uchun gender eng ko'p o'rganilayotgan soha ham tilshunoslikdir.

2. Lingvistik genderologiya har qanday yangi yo'nalish kabi o'ziga xos qirralarga, ya'ni tushunchalar apparati kategoriyalari aniq shakllanmagan yangi yo'nalishdir. Bu yangi yo'nalish o'ziga xos tadqiqot usullari va metodlarining shakllanish jarayonidadir. Shu bilan birga tilshunoslik ilmiy maydonidagi olimlar lingvistik tadqiqotlar metodlaridan hamda, sotsiolingvistika, psixolingvistika va boshqa gumanitar fanlar (lingvistika, tarix, adabiyotshunoslik va boshq.) metodlaridan foydalanishyapti.

3. Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosi tadqiqida diskursga alohida ahamiyat berilishiga sabab aynan so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Shu jihatdan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

4. O'zbek tilida ham dunyodagi barcha tillar kabi, fikr faqat lingvistik yo'l bilangina emas, balki lingvistik bo'lmagan (ekstralingvistik yoki paralingvistik) vositalar – imo- ishoralar hamda implitsit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi. Nutqni to'ldiruvchi noverbal vositalarda ham genderologik farqlarni kuzatish mumkin. Shuning uchun, ekstralingvistik asoslardan bo'lgan noverbal vositalarni ham gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarur. Chunki erkak va ayolning o'ziga xos mimikalari va jestlari bor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. SIYOSIY ADABIYOTLAR

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - 238 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.- 327 б.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- 615 б.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.- 176 б.

### II. ILMIY ADABIYOTLAR

6. Mead M. Sex and Temperament three Primitive Societies. 1935. N.Y.
7. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –Т.: Akademnashr, 2011.
8. А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. “Шарк”, 2001.
9. А.Нурмонов, Ш.Искандарова. Тилшунослик назарияси. – Т., “Фан”, 2008.
10. Алпатов В.М. Япония. Язык и общество. М., 1988.
11. Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006.
12. Богин Г.И. Обретение способности понимать: Введение в филологическую герменевтику / Г.И.Богин. – Тверь, 2001.
13. Бочкарев А.Е. Семантический словарь / А.Е.Бочкарев. – Нижний Новгород: Деком, 2003.
14. Воронина О.А. Теоретико-методологические основы гендерных исследований // Теория и методология гендерных исследований. Курс лекций / Под общ. ред. О.А.Ворониной. – М.: МЦГИ – МВШСЭН – МФФ, 2001.

15. Гадамер Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. (Пер. с нем)/Ганс-Георг Гадамер. – М.: Прогресс, 1988.
16. Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётга кириш. –Т. “Ўзбекистон”, 2007.
17. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. –Т. “Ўзбекистон”. 2003.
18. Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендера: феминистская теория. Введение в гендерные исследования. Часть 1. Учебное пособие. Под ред. Жеребкиной. Харьков. ХГЦИ. «АЛЕТЕЙЯ», СПб., 2001.
19. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993.
20. Комсов В.В. Язык города. – М., 1991.
21. Лотман Ю.М. Об искусстве / Ю.М.Лотман. – СПб: Искусство, 1998.
22. Нишанов В.К. Феномен понимания: когнитивный аспект / В.К.Нишанов. – Фрунзе: Илим, 1990.
23. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. Андижон. 1980.
24. Растье Ф. Интерпретирующая семантика (Пер. с франц.) / Ф.Растье – Нижний Новгород: Деком, 2001.
25. Растье Ф. Интерпретирующая семантика (Пер. с франц.) / Ф.Растье – Нижний Новгород: Деком, 2001.
26. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978.
27. Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Т. “Фан”. 2008.
28. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы...// Контекст. 1989, 1990, 1991, 1992. – М., 1989-92.
29. Э.Гидденс Социология. – Т. “Шарқ”. 2002.

### **III. JURNAL VA TO'PLAMLARDAGI MAQOLALAR, TEZISLAR**

30. Кирилина А.В. Исследование гендера в лингвистических научных дисциплинах// Гендерные образование в системе высшей и средней школы: состояние и перспективы: Материалы международной научной конференции, Иваново, 24-25 июня 2003 г. – Иваново: Иван.гост.ун-т, 2003.

31. Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулқининг жинс жиҳатдан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 64-66 бетлар.